



NASABNOMALARDA CHIG‘ATOY ULUSINING MUSTAQILLIK DAVRI (1306-1346)NING YORITILISHI

Shahlo Maxamova

Mustaqil tadqiqotchi

shahlomahamova88@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-9587-9063>

ANNOTATSIYA: Maqolada Temuriylar davri tarixshunosligining muhim manbalari – “Muizz al-ansob” va Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarlarida Chig‘atoy ulusi mustaqillik davri (1306–1346) tarixining yoritilishi manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu asarlarning o‘ziga xos xususiyati, ya’ni Chig‘atoy xonlarining shajaraviy tarixi va bu jarayonning davlat suvereniteti bilan bog‘liqligi qiyosiy o‘rganilgan. Muallif mazkur manbalar orqali Duvaxon, Kebekxon va Tarmashirinxon davridagi siyosiy barqarorlik hamda ma’muriy islohotlarning sulolaviy legitimlik asoslarini ilmiy asoslab beradi. Maqolada ushbu asarlar Chig‘atoy ulusi mustaqilligini Temuriylar davlatchiligi uchun huquqiy va tarixiy zamin hozirlagan bosqich sifatida talqin etishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Chig‘atoy ulusi, mustaqillik, Muizz al-ansob, To‘rt ulus tarixi, Mirzo Ulug‘bek, suverenitet, Duvaxon, Kebekxon, genealogiya, legitimlik.

АННОТАЦИЯ: В статье с источниковедческой точки зрения анализируется освещение периода независимости Чагатайского улуса (1306–1346) в важнейших памятниках тимуридской историографии – «Муизз ал-ансаб» и «Тарих-и арба’ улус» Мирзо Улугбека. В исследовании сравнительно изучаются генеалогическая история чагатайских ханов и связь этого процесса с государственным суверенитетом. Автор научно обосновывает легитимность политической стабильности и административных реформ в периоды правления Дува-хана, Кебек-хана и Тармаширин-хана через призму данных источников. В статье показано, что эти труды интерпретируют



независимость Чагатайского улуса как этап, подготовивший правовую и историческую базу для государственности Темуридов.

Ключевые слова: *Чагатайский улус, независимость, Муизз ал-ансаб, История четырех улусов, Мирзо Улугбек, суверенитет, Дува-хан, Кебек-хан, генеалогия, легитимность.*

ABSTRACT: *The article provides a source-critical analysis of the representation of the Chaghatai Khanate's independence period (1306–1346) in the essential monuments of Timurid historiography – "Muizz al-ansab" and "Tarikh-i arba' ulus" by Mirzo Ulugbek. The study comparatively examines the genealogical history of the Chaghatai khans and the connection of this process with state sovereignty. Through these sources, the author scientifically substantiates the dynastic legitimacy of political stability and administrative reforms during the reigns of Duwa Khan, Kebek Khan, and Tarmashirin Khan. The article demonstrates that these works interpret the independence of the Chaghatai Khanate as a stage that prepared the legal and historical foundation for Timurid statehood.*

Key words: *Chaghatai Khanate, independence, Muizz al-ansab, Tarikh-i arba' ulus, Mirzo Ulugbek, sovereignty, Duwa Khan, Kebek Khan, genealogy, legitimacy.*

KIRISH (Introduction)

O'rta asrlar Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida Chig'atoy ulusining 1306–1346-yillardagi suveren taraqqiyot bosqichi mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va sivilizatsiyaviy qiyofasini belgilab bergan muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrni o'rganishda Temuriylar davri manbashunosligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orasida **“Muizz al-ansob** (Nisbalar shajarasida izzatli shaxslar nasabnomasi) va Mirzo Ulug'bekning **“To'rt ulus tarixi”** asarlari o'zining genealogik va faktologik boyligi bilan ajralib turadi.

Mazkur manbalarning o'ziga xosligi shundaki, ular Chig'atoy xonlari tarixini shunchaki voqealar bayoni tarzida emas, balki sulolaviy uzviylik va huquqiy legitimlik prizmasidan yoritadi. “Muizz al-ansob” ulusning ma'muriy va harbiy



elitasining shajaraviy tuzilishini ochib bersa, “To‘rt ulus tarixi” Chig‘atoy xonadonining mustaqil geosiyosiy sub’ekt sifatidagi yuksalishini tarixiy va falsafiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu maqolada mazkur ikki asar misolida 1306–1346-yillardagi mustaqillik jarayonlarining manbashunoslik tahlili amalga oshiriladi.

“Muizz al-ansob fiy shajarat al-ansob” 1426-yilda Shohruh Mirzo topshirig‘iga ko‘ra yozilgan) asari Chig‘atoy ulusi mustaqilligini **sulolaviy qonuniylik (legitimlik)** va **siyosiy elita transformatsiyasi** nuqtai nazaridan o‘rganishda tengsiz manba hisoblanadi. “Muizz al-ansob” asari Chig‘atoy ulusi sulolaviy va ma‘muriy boshqaruvining manbasi sifatida Chig‘atoy ulusining 1306–1346-yillar oralig‘idagi tarixini nafaqat xonlar shajarasi, balki davlatning **harbiy-ma‘muriy ierarxiyasi** (mansabdorlar ro‘yxati) orqali yoritadi. Bu manba ulus mustaqilligining de-yure asoslarini – xonlar xonadonining tarkibi va ularga bo‘ysunuvchi amirlar tabaqasi orqali isbotlaydi.

Asarda Chig‘atoy ulusi hukmdorlari boshqa mo‘g‘ul uluslaridan ajratilgan holda, o‘ziga xos xonadon sifatida tasvirlanadi. Bu ulusning suverenitetini sulolaviy jihatdan mustahkamlaydi. Manbada bu haqda “Chig‘atoyxon avlodlari Movarounnahr va Turkiston mulkining vorislari bo‘lib, Duvaxon va uning o‘g‘illari davrida usgbu taxt mutloq mustaqillikka erishdi. Ularning nasabi pokligi va hukmronlik huquqi barcha mo‘g‘ul shahzodalari tomonidan e‘tirof etilgan edi”¹. Ushbu ma‘lumot Chig‘atoy ulusi mustaqilligining de-yure (huquqiy) maqomini, ya‘ni ularning Chingizxon vasiyatiga ko‘ra o‘z mulklarida mustaqil hukmronlik qilish huquqini sulolaviy legitimlik orqali asoslaydi.

“Muizz al-ansob”ning eng noyob jihati shundaki, u Kebekxon va Tarmashirinxon kabi xonlarning saroyidagi **mansabdorlar (noiblar, devonbekilar, amirlar)** ro‘yxatini keltirgan. Bu haqda “Sulton Kebekxon davrida davlat ishlari nihoyatda tartibli bo‘lib, har bir tumanning o‘z amiri, har bir devonning o‘z kotibi bor edi. Xon saroyida barlos, jaloyir va qavchin urug‘larning ulug‘ amirlari xizmatda

¹ Му‘изз ал-ансāб (прославляющее генеалогии) // История Казахстана в персидских источниках. Т. III. Отв. ред. А.К. Муминов. Введение, перевод с персидского языка, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш.Х. Вохидова. Сост. указ. У.А. Утепбергеновой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2006. – С. 48-61.



bo'lib, davlat boshqaruvida xonga ko'makdosh bo'ldilar"². Bu iqtibos Kebekxon islohotlarining (1318-1326) institutsional natijasini ko'rsatadi. Bu yerda birinchi marta mahalliy turk-mo'g'ul amirlarining davlat boshqaruvidagi o'zni hujjatlashtirilgan bo'lib, bu siyosiy elita evolutsiyasini o'rganishda asosiy dalildir.

Asar oxiridagi shajaraviy o'zgarishlar 1346-yildan keyin hokimiyatning amalda amirlar (masalan, Amir Qazag'on) nazoratiga o'tganini ko'rsatadi. Bu haqda "keyinchalik xonlik taxti amirlar irodasiga bog'liq bo'lib qoldi. Garchi xonlar Chig'atoy naslidan bo'lsalar-da amalda barcha ishlar amir ul-umarolar tomonidan hal etilardi"³. Mazkur ma'lumot Chig'atoy ulusi suverenitetining inqirozini ba de-sentralizatsiya jarayonining sulolaviy oqibatlarini yoritadi. "Muizz al-ansob" faksimile va ilmiy izohlar bilan rus tiliga o'girilib, 2006-yilda nashr etilgan⁴.

Mirzo Ulug'bek va uning "**Tarixi arba' ulus**" ("To'rt ulus tarixi") asari Chig'atoy ulusi mustaqillik davrini o'rganishda Temuriylar davri tarixshunosligining eng nufuzli va rasmiy manbasi hisoblanadi. Bu asar Amir Temur va Ulug'bek davrida mavjud bo'lgan barcha manbalar (shu jumladan, Juvayniy, Rashiddin va boshqalar) asosida yozilgan umumlashtiruvchi nasabnomadir. Muallif asarda Chig'atoy ulusi davlatchilik an'analari rasmiy talqinda ifodalab, Chingizxon imperiyasini to'rt ulusga (Juchi, Chig'atoy, O'qtoy va Tuli avlodlari) bo'linishi tarixini tizimlashtirib bergan. U Chig'atoy ulusi tarixiga, ayniqsa 1306–1346-yillardagi mustaqil hukmronlik davriga alohida e'tibor qaratadi, chunki bu hudud bevosita keyinchalik, Temuriylar davlati joylashgan maskan edi.

Asarda Chig'atoyxon avlodlarining boshqa uluslardan ajralib chiqqani va o'z taqdirini Movarounnahrda belgilagani rasmiy tarixiy fakt sifatida e'tirof etilib, Chig'atoyxon ibn Chingizxonning ulusi Movarounnahr, Qashg'ar va Turkistonning ba'zi viloyatlari bo'ldi. Bu ulus hukmdorlari o'z davrida mustaqil podshohlar bo'lib, o'z mulklarida hukmronlik qildilar"⁵. Ushbu iqtibos Chig'atoy ulusining 1306-1346-

² Mu'izz al-ansob (прославляющее генеалогии). – В. 50.

³ O'sha asar. – В. 72-73, 103.

⁴ Mu'izz al-ansob (прославляющее генеалогии). – 672 с.

⁵ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи /Форс тилидан Б.Аҳмедов, М.Ҳасаний ва Н.Норқуловлар тарж. – Тошкент, 1994. – В. 102



yillarda de-yure va de-fakto mustaqil maqomini Mirzo Ulug‘bek kabi nufuzli olim va hukmdor tomonidan tasdiqlanganini ko‘rsatadi. Bu Temuriylar tarixshunosligining Chig‘atoy ulusiga rasmiy bahosidir.

Mirzo Ulug‘bek Kebekxonni Movarounnahrda o‘troq hayotni mustahkamlagan va shaharlarga e‘tibor qaratgan hukmdor sifatida alohida ajratib ko‘rsatadi. Manbada bu haqda shunday deyiladi: “Kebekxon Samarqanddan Nasaf (Qarshi)ga bordi va u yerni o‘ziga qarorgoh qildi, shaharni obod qilib, devonxonalar qurdi. Uning hukmronligi davrida mamlakatda tinchlik va adolat hukm surdi”⁶. Bu ma‘lumot Kebekxonning Qarshini poytaxt qilish siyosati shunchaki xronologik fakt emas, balki davlatni markazlashtirish va urbanizatsiya yo‘lidagi muhim qadam ekanini tasdiqlaydi.

Muallif Chig‘atoy ulusining parchalanishini ta‘riflar ekan, bu jarayonni Amir Temur davlatining shakllanishi uchun zamin sifatida ko‘radi va “nihoyat, o‘sha xonadon orasida ixtilof tushib, har bir amir o‘z viloyatida mustaqil bo‘ldi. To Amir Temur Sohibqiron zuhur etib, barcha parchalangan o‘lkalarni Chig‘atoy ulusi bayrog‘i ostida qayta birlashtirguncha, tarqoqlik davom etdi”⁷. Bu iqtibos Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davlati o‘rtasidagi tarixiy uzviylik (kontinue) nazariyasini mustahkamlaydi. Ulug‘bek Amir Temurni Chig‘atoy ulusi davlatchilik an‘analarining qonuniy merosxo‘ri sifatida ko‘rsatadi. Xullas, Mirzo Ulug‘bekning asari tadqiqotimizning xulosalari uchun yakuniy va eng rasmiy dalil bo‘lib xizmat qiladi, chunki muallif ikki davrni ham chuqur bilgan hukmdor va olimdir.

Manbadagi ma‘lumotlarning aksariyati “Mangol-un Niucha Tobchian” (“Mog‘ullarning maxfiy tarixi”), “Jome‘ at-tavorix”, “Muizz al-ansob” kabi asarlardan ko‘chirilgan bo‘lsa ham, ayrimlari mustaqil ahamiyatga ega⁸. Asar hozirgacha ingliz, o‘zbek va boshqa tillarga tarjima qilinib, nashr etilgan⁹.

⁶ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – В. 315-316.

⁷ O‘sha asar. – В. 325-326.

⁸ Улашова С.У. Мирзо Улуғбекнинг “Тарихи арбаъ улус” асарида этник масалалар// Акад. У.Каримов номидаги ёш шарқшунослар конференцияси тезислари. – Тошкент, 2010. – Б. 15-18.

⁹ Ulugh Bek. The Shajarat ul-Atrak / trans. C. Miles. – London, 1838; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи /Форс тилидан Б.Аҳмедов, М.Ҳасаний ва Н.Норқуловлар тарж. – Тошкент, 1994.



Xulosa qilib aytganda, “Muizz al-ansob” va “To‘rt ulus tarixi” asarlarini qiyosiy o‘rganish Chig‘atoy ulusi mustaqilligi davrini ilmiy asoslashda fundamental ahamiyatga ega. Mazkur manbalar Chig‘atoy xonlari tarixini sulolaviy uzviylik (Muizz al-ansob) va davlat qurilishi konsepsiyasi (“To‘rt ulus tarixi”) prizmasidan yoritib, Duvaxon, Kebekxon va Tarmashirinxon davridagi siyosiy barqarorlik hamda ma’muriy islohotlarning huquqiy va genealogik asoslarini ochib beradi. Bu esa mustaqillik davrini shunchaki harbiy fakt emas, balki tizimli davlat qurilishi jarayoni sifatida baholashga imkon yaratadi.

Ushbu manbalar Chig‘atoy ulusi tajribasining Temuriylar davri bilan uzviy bog‘liqligini (kontinuite) isbotlovchi asosiy dalillar bazasini taqdim etadi. Ular orqali Amir Temur saltanatining ma’muriy va huquqiy asoslari aynan 1306–1346-yillardagi suverenitet davrida shakllangani ishonchli tarzda asoslanadi. Umuman olganda, ushbu asarlar Chig‘atoy ulusi mustaqilligini Markaziy Osiyo tarixidagi Movarounnahrning sivilizatsiyaviy va siyosiy yuksalishini ta’minlagan suveren davlatchilik bosqichi sifatida e’tirof etish imkonini beradi.